

1- Laboratoriya ishi

Mavzu: Beldan kiyiladigan kiyimlar. Ayollar bo'lakli yubkasini konstruksiyasini kompyuter dasturi orqali qurish.

Ishni bajarishdan maqsad: Ayollar bo'lakli yubkasini konstruksiyasini chizish uchun o'lchamlar olish, hisoblash va chizish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va yubka konstruksiyasini kompyuter dasturi orqali qurish.

Kerakli asbob-uskunalar: komputer, chizg'ichlar to'plami; moda jurnallari; qog'oz va qalam; texnologik xarita; mantimetrli lenta, ruletka; texnik shartlar yoki me'yoriy hujjatlar (GOST); qaychi, kalka qog'oz; gazlama namunalari katologi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI:

Bel kiyimlariga qo'yiladigan talablar.

Ustki belli buyumlar qatoriga yubka va shimlarning xilma xil modifikatsiyalarini kiritish mumkin. Ular klassik uslubga mo'ljallangan asosiy konstruksiyalardan olinadi. Belli kiyimlarga yubkalar, shimlar, shortik, lozim, yubka-shimlar kiradi. Yubkalar silueti bo'yicha to'g'ri, etakka qarab kengaygan va toraygan bo'ladi. (8- rasm) Har bir siluet bir necha variantlardan iborat bo'lishi mumkin. Yubka konstruksiyasini chizishda avval siluet tanlanadi, so'ng shaxsiy figura to'laligi hisobga olinib zamonaviy moda yo'nalishiga mos model aniqlanadi. To'g'ri yubka va uning variantlari ixcham bo'ksali ayollar figurasini kelishgan qilib ko'rsatadi. Uning etak qismi bo'ksa qismiga nisbatan 5-8 sm ga kengroqdir. Etagi kengaytirilgan yubka beli xipcha (ingichka belli) va bo'ksador ayollarga yarashadi. Yubkani kengaytirish bel vitochkalarini etak chizig'iga o'tkazish yo'li bilan hal etiladi

Etak qismi toraytirilgan yubka («hurmach» shaklidagi) bashang kiyimlarda ko'proq uchraydi. Bunday yubkalar qattiqroq gazlamadan tikiladi. Ba'zi hollarda bel vitochkalar o'rniga mayda burmalar loyihalanadi. Yubka barcha siluetlari va ularning variantlari to'g'ri siluetli yubka gazlamasi asosida konstruktiv modellash yo'li bilan yaratiladi. Yubkani modellashda uning bo'laklarining o'zaro mutanosibligiga (proportsional ichiga) e'tibor berish kerak. Yubkani modellash uchun tanlangan gazlama xossalarini va figuraning to'laligini ham hisobga olish zarur. Yupqa va mayin gazlamalardan etagi kengaytirilgan yubkalar, cho'ziluvchan gazlamadan torroq yubka tikish ma'qulroqdir. «Klyosh», «gode» bichimli yubkalarni kengaytirish darajasi (kattaligi) qomat tuzilishiga qarab aniqlanadi.

Bo'lakli yubkalarni loyihalash.

Yubka bo'laklari soni har xil bulishi mumkin, lekin juft son (4, 6, 8, 12) bo'lgani ma'qul; taqilmasi chap yonda yoki old va orqa bo'laklar o'rtasida bo'lishi mumkin. Taqilma tikish uchun eni 3—4 sm, bo'yi 25 sm qo'shimcha taqilma haqi chiqariladi. Misol tariqasida olti bo'lakli yubkani loyihalashni ko'rib chiqamiz. Qolgan bo'lakli yubkalarni loyihalash xuddi

shu tarzda bo‘ladi, faqat bel va bo‘ksadagi qiymatlar bo‘lak soniga qarab bo‘linadi.

Olti bo‘lakli yubkani loyihalash (45-rasm)

Bu yubkani loyihalash uchun gavdadan olingan quyidagi o‘lchovlar kerak bo‘ladi:

$B_{lA} = 76 \text{ sm}$

$Q_{Bl} = 2 \text{ sm}$

$B_{kA} = 106 \text{ sm}$


$Q_{Bk} = 4 \text{ sm}$

$Y_{uU} = 70 \text{ sm.}$

1. Qog‘ozning yuqori o‘rta qismida Bnuqtani belgilab, undan pastga vertikal chiziq o‘tkaziladi.

2. $B_{lE} = Y_{uU} = 70 \text{ sm}$ (yubka uzunligi).

3. $B_l B_k = 18\text{—}20 \text{ sm}$ (bo‘ksa chizig‘i).



45-rasm. Olti bo‘lakli yubka chizmasi.

4. B_l, B_k, E nuqtalardan gorizontaal chiziq o‘tkaziladi.

5. $B_{l1} B_{l2} = (B_{lA} + Q_{Bl}) : 6 = (76 + 2) : 6 = 13 \text{ sm}$ (beldagi kenglik).

6. $B_l B_{l1} = B_l B_{l2} = B_{l1} B_{l2} : 2 = 13 : 2 = 6,5 \text{ sm}$ (beldagi kenglikning yarmi).

7. $B_l B_{l3} = 0,5\text{—}1 \text{ sm}$ (bel chizig‘ining tushishi).

8. B_{l1}, B_{l3}, B_{l2} nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

9. $B_{k1} B_{k2} = (B_{kA} + Q_{Bk}) : 6 = (106 + 4) : 6 = 18 \text{ sm}$ (bo‘ksadagi kenglik).

10. $B_k B_{k1} = B_k B_{k2} = B_{k1} B_{k2} : 2 = 18 : 2 = 9 \text{ sm}$ (bo‘ksadagi kenglikning yarmi). 11. B_{l1}, B_{k1} nuqtalar va B_{l2}, B_{k2} nuqtalar chizg‘ich yordamida tutashtiriladi va etak gorizontaal chizig‘i bilan kesishguncha davom ettiriladi. Mos ravishda E_1, E_2 nuqtalar bilan belgilanadi.

12. $B_{l1} E_3 = B_{l2} E_4 = B_{l3} E$ (o‘rta chiziqni chizmadan o‘lchab, yon tomon uzunliklari belgilab olinadi).

13. E_3, E, E_4 ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

14. Etak qismini modelga qarab kengaytirish mumkin

Quyosh yubkalarini loyihalash.


Bunday yubkalar etak qismidagi kengayishi bo'yicha eng katta miqdorni egallagan va bo'ksa chizig'ida esa bo'ksa kengligi chegaralanmagan bo'ladi. Bunday yubkalarini loyihalash uchun quyidagi o'lchovlar kerak bo'ladi. $BIYaA = 38$ sm

$$YuU = 70 \text{ sm}$$

$$QBl = 1 \text{ sm}$$

„Yarim quyosh“ yubkani loyihalash (46-rasm, a)

1. To'g'ri burchak chizilib, uning burchagiga O nuqta ko'yiladi.
2. $R_1 = (BIYaA + QBl) : 3 \times 2 - 2 = 24$ sm (bel chizig'igacha bo'lgan oraliq).
3. $R_2 = R_1 + YuU = 24 + 70 = 94$ sm (etak chizig'igacha bo'lgan oraliq)
4. Bichish jarayonida yubkaning bo'y iði gazlamaning bo'yiðiga nisbatan 45° bo'lishini e'tiborga olgan holda, buning natijasida gazlamaning cho'zilishi yuzaga kelib, yubka etak qismining uzayishi sodir bo'ladi. Shuning uchun $E_2E_3 = 1,5\text{—}3$ sm (etak qismining ko'tarilishi, bu qiymat gazlamaning xossasiga bog'liq).
5. E_1, E_3, E nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.



46-rasm. Quyosh yubkalar chizmasi.

„Quyosh“ yubkani loyihalash.

1. To'g'ri chiziqda O nuqta belgilanib, O nuqtadan pastga perpendikulyar o'tkaziladi.
2. $R_1 = BIYaA : 3 - 1 = 38 : 3 - 1 = 12$ sm (bel chizig'igacha bo'lgan oraliq).
3. $R_2 = R_1 + YuU = 12 + 70 = 82$ sm (etak qismigacha bo'lgan oraliq). Yubkaning etak qismi huddi „yarim quyosh“ yubkanikiga o'xshab chiziladi.